

Ona yurti - oltin beshig

TONG Yulduzi

№18 (66351)
2002 yil
29 aprel,
dushanba
Sotuvda
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.



*G'alabaga Harakat
Qilganlarga barakat!*

Kim epchil - kim chaqqon,
Qanday, qayerda, nega?
Kimdan kim g'olib chiqqan,
Sovg'aga bo'lgan ega.

Sovg'aning bahosi yo'q,
Omading kulib boqsin.
Ko'zlaringda porlab cho'g',
Nasibang to'lib oqsin!

Bu dunyo o'tar-ketar,
Noming qolsin omonda.
Har kim niyatga yetar,
Kuch sinashib maydonda.

O'rgimchakdek o'rmala,
Bedanadek yo'rg'ala.
G'alabaga harakat
Qilganlarga barakat!



"UMID NIHOLLARI" NISHONA BERDI

Xabaringiz bor, 24-aprel kuni Farg'onada «Umid nihollari» Respublika maktab o'quvchilarining sport musobaqalari tantanali ravishda ochildi. Parkent tumanidagi «Fizika-quyosh» ilmiy ishlab chiqarish markazida yoqilgan «Umid nihollari» sport musobaqalarining mash'alasini umidli sportchilarimiz shahar va qishloqlar osha g'urur va

iftixor bilan qo'lma-qo'l qilib, Farg'onadagi markaziy o'yingohga yetkazishdi. 20 ming tomoshabin sig'adigan o'yingohdagi zarrin nurli rango-rang chiroqlar, shamolda mayin hilpirayotgan bayroqlar, gullarga burkangan chamanzor, shalolalar timsoli kishiga bayramona kayfiyat baxsh etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Davlat maslahatchisi

T.Risqiyev kichik olimpiada maqomini olgan sport bayrami ishtirokchilariga mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimovning yo'llagan tabrigini o'qib eshittirdi. So'ngra o'yingoh uzra O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangradi.

«Umid nihollari» musobaqalari mash'alasini sportning turli sohalarida ulkan yutuqlarni qo'lga

kiritgan umidli yosh sportchilarimiz yoqishdi. Tantanali qism uch qismdan iborat bo'ldi. Sportchilarning teatrlashtirilgan tomoshalari, taniqli raqs jamoalari, estrada yulduzlarining chiqishlari namoyish etildi.

So'ngra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va barcha viloyatlardan kelgan maktab o'quvchilari sportning o'n bir turi bo'yicha bellashdilar.

(Davomi 3-betda).

**Bekorchilik - bezorilik**

Xalqimiz orasida «Bekorchidan xudo bezor» degan naql yuradi. Haqiqatdan ham, barcha noo'rin ishlar bekorchilik oqibatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham pedagoglar o'quvchilarning bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladi. Ularni to'garaklarga jalb qilib, tanlovlar, anjumanlaru bellashuvlar uyushtiradilar. Bu ezgu ishlarning tagida oliy maqsad turadi. U ham bo'lsa o'quvchilarni bekor qo'ymaslik, ularni yaxshiliklarga o'rgatish, yomonlardan, yomonliklardan asrashdir.

Buni qalban his qilgan andijonlik o'qituvchilar ham ko'plab tadbirlar tashkillayaptilar. Yaqinda Andijon shahridagi Hamid Olimjon nomli 4- maktabda «Jaholatga qarshi ma'rifat» mavzusida ma'naviy - ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlarining seminar yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda o'qituvchilar bilan birga o'quvchilar ham faol ishtirok etdi.

«Bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'lim va tarbiyasini ko'rgan shaxslar kerak».

I.KARIMOV.

Ular «sud zali» dan chiqqanlaridan so'ng, «yaxshiyamki bu ijro» dedilar. Hech kim, hech bir tengdoshlari bu ko'yga tushmasligini chin dildan istadilar.

Shundan so'ng,

YASHASHNI YURAKDAN O'RGAN

Ha, yashashni yurakdan o'rgansa bo'larkan. Chindan ham yurakning ishlash maromi kishini hayratda qoldiradi. U minutiga 70-72 martadan qisqarib-bo'shashar ekan. Bunda yurakning har bir qisqarishi 0,3 sekund, bo'shashi esa 0,5 sekund davom etadi. Yurak bir sutkada yuz ming marta, yiliga qirq million marta qisqarib-bo'shashar ekan. Har qisqarib bo'shaganda 0,1 litr qonni haydaydi. Tinch holatda organizmda jami qonning 55-75 foizi aylanib yuradi. Qonning qolgan qismi esa jigar, taloq va terida bo'ladi. Bir kecha-kunduzda yurak 9 ming litr, yil davomida esa 3 million litr qonni o'zi orqali o'tkazarkan.

Maktab o'quvchilari tomonidan tayyorlangan tarbiyaviy soatlar, ochiq darslar mehmonlarda qiziqish uyg'otdi. Masalan, 2- «D» sinf o'quvchilari ustozlari Munavvarxon O'rinboyeva boshchiligida «Ona tabiatni asrash bilan yonar jajji yuragim» mavzusidagi suhbatlari, 4- «J» sinfida bo'lgan «Insonning burchi»ga bag'ishlangan darslari, 8- «A» sinfidagi «Ichkilikbozlik, giyohvandlik- kamolot dushmani», «Bir qultum fojiasi», 9- «V» sinf o'quvchilari Usmonjon Ahmedov rahbarligida tayyorlagan «Diniy ekstremizmning mamlakatimizga havfi» kabi suhbatlar ancha

munozarali o'tdi.

8- «A» sinf o'quvchilari kichik sahna ko'rinishi orqali ichkilikbozlik, giyohvandlikning oqibati faqat yomonlik bilan tugashini ko'rsatib berdilar.

O'quvchilar go'yo o'zlarini sud zalida o'tirgandek his qildilar. Sudya rolini- Shohida Mamajonova, advokatni Azizbek Zulunov, giyohvandlar - Jamshid Abdurahimov, Ulug'bek Karimov, shuningdek, ularning ota-onalari -

Nodira Abramova, Abduvosit Ramazonov, Nodira Sobirovalar bor mahoratlarini ishga soldilar.

Hatto ularga qo'shib «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani o'qituvchisi Munavvarxon Pirmatovanning ijrosi ham o'ta jonli chiqdi. Ayblanuvchilar o'z qilmishlaridan afsuslanib, ota-onalaridan, ustozlariyu do'stlaridan kechirim so'radilar. Biroq, so'nggi pushaymon o'zlariga dushman ekanligini juda kech anglab yetdilar.

«Ichkilikbozlik, giyohvandlik- kamolot dushmani», «Bir qultum fojiasi» mavzuidagi ochiq dars orqali o'quvchilar o'zlari uchun kerakli xulosani chiqardilar, deb o'ylayman,- deydi Munavvarxon Pirmatova. -

mehmonlaru mezbonlar kutubxonaga, kitoblar olamiga yo'l oldilar. «Qalb tuyg'usini titratgan yulduz» deb nomlangan suhbatda o'quvchilar Muhammad Yusuf she'riyatiga murojaat qildilar.

Maktab kutubxonachisi O. Mirzakarimova, o'qituvchi I. Abdumajidova tomonidan tayyorlangan konferensiya barchaga birdek ma'qul bo'ldi.

«Qizlar klubi» ham bo'sh kelmadi. Ustozlari- Xurshidaxon Abdullayeva qizlarni iboli, nazokatli bo'lishga, saranjom - sarishtalikka o'rgatgani yyaqqolgina sezilib turadi.

Ushbu seminarga maktab jamoasi katta tayyorgarlik ko'ribdi. Ana shunday tadbirlar o'quvchilarning ma'naviy olamini boyitadi.



"UMID NIHOLLARI" NISHONA BERDI

(Boshi 1-betda)

Futbolchilar to'rt guruhga bo'lingan holda Toshloq tumanidagi stadionda to'p surishsa, voleybolchilar Marg'ilon qurilish kolleji hamda 2-bolalar sport maktabi zallarida kuch sinashdi. Suzish bo'yicha bellashuvlar «Delfin» majmuasida o'tgan bo'lsa, o'zbek kurashi ishqibozlari Qirguli soliq kollejining sport inshootlarida ajoyib musobaqalarning guvohi bo'lishdi. Bellashuvlar natijasida g'oliblar aniqlanib, sovrinlar o'z egalarini topdi.

«Bu sport o'yinlari yildan-yilga sizlarning quvvatingizga-quvvat, g'ayratingizga-g'ayrat qo'shib, bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lishingiz uchun puxta zamin yaratadi. O'g'il-qizlari ana shunday fazilatlarga ega bo'lgan mamlakatning esa istiqboli albatta yorug' bo'ladi».

I. KARIMOV

Yurtboshimiz tashabbusi bilan o'tkazilgan mazkur tadbir yoshlarimizni sog'lom, har tomonlama barkamol qilib voyaga yetkazish, iqtidorli sportchilarni tanlash va



«Aziz farzandlarim, Vatan tinchligi va farovonligi, uning buyuk kelajagi yo'lida el-yurtning tayanchi va fidoyisi bo'lib yashash saodatini har narsadan baland tuting.»

I. KARIMOV

tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur musobaqaning «Umid nihollari» deb nomlanishida ramziy ma'no bor. O'tgan yili ilk bor o'tkazilgan «Umid

niholi» bu yil nishona berdi. Kelajakda unib-o'sib, azim chinorlarga aylanishiga ishonamiz.

Ma'lumki, 1997 yil 29 avgustda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Joylarda shu dasturga xos va mos ishlar olib borilmoqda. Dasturning asosiy maqsadi - yuksak ma'naviy va ahloqiy

o'quvchilari a'zo bo'lgan «Boychechak» to'garagiga 1992 yildan beri rahbarlik qilib kelmoqdaman. To'garakka 20 nafar o'quvchi a'zo. To'garak a'zolarining 8 nafari ijod qilish bilan

natijalarga erishib qaytishdi. 11- «A» sinf o'quvchisi Shohista Xudoyorova, 10- «A» sinf o'quvchisi Fotima Sulaymonbekova va 8-sinf o'quvchisi Gulnoza Karimovalar Respublika

dunyoqarashi oshmoqda. O'z shahri, viloyati, tumanida yashab, ijod qilayotgan shoir va yozuvchilar ijodi bilan yaqindan tanishmoqdalar. Adabiy kechalar va uchrashuvlar tashkil etib, o'zlari ham faol ishtirokchilariga aylanyaptilar.

Xulosa qilib aytganda, olib borayotgan ishlarimiz shular, rejalarimiz ulkan. Ularni amalga oshirish uchun esa ayrim muammolarga duch kelmoqdamiz. Maktabimizda kompyuterlar bor, lekin ular yaroqsiz holatda. Agar zamonaviy kompyuterlar bo'lganda, yangi-yangi rejalarimizni amalga oshirgan bo'lardik.

IQTIDORLI BOLALARGA E'TIBOR KERAK

talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashdan iboratdir.

Shunday ekan, biz o'qituvchilardan talab etilayotgan narsa yuqori saviyada dars o'tish, hamda sinfdan tashqari ishlarni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Bizning Oybek nomidagi 12 - maktabimizda ham to'garak ishlari yaxshi faoliyat ko'rsatmoqda. 5-, 9 - sinf

shug'ullanadi. To'garakdagi barcha ishlarni a'zolarimiz bilan bamaslahat amalga oshiramiz. Yaqinda

qo'g'irchoq teatri tashkil etib, tadbirkorlik borasida yaxshi natijalarga erishgan bo'lsak, o'z o'lkasining bilimdonlari bo'lgan o'g'il-qizlarimiz «Adabiy o'lkashunoslik» yo'nalishi bo'yicha «Iqtidorli bolalar» anjumanlarida ishtirok etib, yuqori

Iqtidorli bolalarning IX, X, XI anjumanlarida qatnashib, «Iqtidorli o'quvchi» diplomi bilan mukofotlandilar.

To'garak a'zolarimiz zukko va izlanuvchan bolalar. Ular to'garak mashg'ulotlarida turli boshqotirmalar, rebuslar tuzib kelib, tengdoshlarining boshlarini «qotirishadi».

Shu tariqa o'quvchilarimizning ma'naviy boyligi,

Gulsara KARIMOVA,
Sirdaryo viloyati, Guliston shahridagi

FAYZI BOR MAKTAB

Chindan ham maktabimizning o'zgacha fayzi bor. Maskanimizning yanada fayzli bo'lishida ustozlarimizning hissasi katta.

Ularning yelib -yugurishlari natijasida maktabning qo'shimcha binosi ham bitkazildi. Turli mevali daraxt ko'chatlari o'tkazildi.

Bu daraxtlar maktabimizga yanada ko'rk berib turadi. Maktabimiz direktori Mastura opa Ubaydullayeva biz o'quvchilar uchun kerakli sharoitlarni yaratib berganlar. Ko'plab to'garaklar ishlab turadi. Bellashuvlar, musobaqalar uyushtiriladi.

Maktabda o'tgan har bir kunimiz bizga olam-olam quvonch keltiradi. Mana shunday bilim maskanida ta'lim-tarbiya olayotganimizdan faxrlanamiz.

*Dildora XOLMUHAMEDOVA,
Poytaxtimizdagi Shotursun G'ulomov nomli
114- maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.*

O'QUVCHIMGA MAKTUB

Salom, aziz o'quvchim! Bu maktubni senga anchadan beri yozaman derdimu nimadan boshlashni bilmasdim. Va nihoyat...

Bugun ertalab seni maktabga kirib kelishingni ko'rdimu, xayolim bo'lindi. Chiroyli gavgangga yarashib turgan kiyiming o'spirinlik davriga qadam qo'yganingdan dalolat berib turardi. Yonimga kelib salomlashganingda seni maktabga ilk bora qadam qo'yganing yodimga tushib ketdi. O'shanda ham maktab formasida, hovlingdan uzilgan atirgul bilan yonimga kelib, salom berib, gulingni tutqazganding. Asta-sekin bilim deb atalmish sehrli olamga kirib kelding... Voqeahodisalarni, kishilarni qandayligini anglay boshlading. Sen har kuni maktabga o'zgacha kayfiyat bilan kelarding. Doimo darsga tayyorlanib, «Men, men» deya qo'lingni ko'tararding...

Mana, endi yuqori sinf o'quvchisisan. Endi kiyinging, pardoz qilging keladi. Birovlarga taqlid qilasan. «Men, men» deya ko'farilgan qo'ling asta-sekin «men emas» ga o'tadi. Mana bu yil maktabni tugatasan. Oldinda seni hayotning baland-past pillapoyalari kutib turibdi. Vaqt-oliy hakam. Meni tilagim ota-onang orzu qilgandek farzand bo'l, el-yurt uchun xizmat qiladigan, bizni ishonchimizni oqlaydigan komil inson bo'l. Mustaqil hayotga qo'yayotgan qadaming qutlug' bo'lsin! Barcha orzu-umidlaring ro'yobga chiqishini tilab qoluvchi Ustozing.

*Gulchehra JABBOROVA,
Samarqand viloyati, Toyloq
tumanidagi M.Ulug'bek nomli
11-maktabning boshlang'ich sinf
o'qituvchisi.*

XATLAR TEGIRMONI



MALIKA BO'LISH OSON EMAS EKAN

Yaqinda maktabimizda «Navro'z malikasi» deb nomlangan ko'rik tanlov bo'lib o'tdi. Unda sakkiz nafar o'quvchi qizlar bellashdi. Ular orasida men ham bor edim.

Barcha shartlar murakkab bo'lib, hech bir ishtirokchi bo'sh kelmaslikka harakat qildi.

Dastlab salomlashdik. So'ngra mushoira qildik. Sahna ko'rinishiyu pazandalikda har bir qiz o'z mahoratini namoyish etdi.

Navbatdagi shart, erkin mavzusi xalq qo'shiqlaridan aytib berdik. Har bir qatnashchining chiqishi 25 ballan 50 ballgacha baholanib bordi.

Kutilmaganda eng ko'p ball to'plagan men bo'lib chiqdim. Va birinchi o'rinni egalladim. Bundan juda ham xursandman. Istagim, barcha qizlarga malika bo'lish nasib etsin.

*Feruza MELIYEVA,
Sirg'ali tumanidagi 322 - maktab o'quvchisi.*

«DARDKASH» O'N YOSHGA TO'LDI

Men bo'sh vaqtlarimda kitob o'qishni, gazeta va jurnallar varaqlashni yaxshi ko'raman. Mening buvajonim va buvijonim o'qituvchi bo'lishgan. Men ham kelajakda o'qituvchi bo'lishni orzu qilaman. Mening buvijonim-Saida opa Baqoevani G'ijduvonda hamma taniydi. Ularning ko'plab shogirdlari bor. Ular shoir, jurnalist, kimdir o'qituvchi... Lekin buvijonimning eng yaxshi ko'rgan shogirdlari Baxshanda opa Boltayevadirlar. Ular bizning tumanimizda ayollar uchun «Dardkash» deb nomlangan gazeta chiqaradilar. Bu yil mazkur gazeta chiqa boshlaganiga o'n yil to'ladi. Shu munosabat bilan gazetaning yubiley to'yi bo'ldi. Aziz mehmonlar qatorida bayramga buvijonim ham bordilar. Buvijonim va bayramga kelgan mehmonlarni gazeta xodimlari «Qariyalarni qadrlash yili» bilan tabrikladilar. O'z navbatida bu yerga yig'ilgan mehmonlar ham gazeta xodimlarining ishlariga muvaffaqiyatlar tiladilar. Bayram juda ham yaxshi o'tdi. Insonlarga ma'rifat, ilm ulashayotgan insonlarning ishlari doimo rivojlanaversin.



*Alfiya XABIBULLINA,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumani.*

Zirapcha



Zamon talabiga mos kadrlar tayyorlash maktabdan boshlanadi.

Bizning maktabimizda ham hamma imkoniyat mavjud. Lekin EHM fanidan aytaylik, o'tilgan darslar amaliyotda qo'llanilmaydi. Sababi kompyuterlar ta'mirlanmagan. Yil boshida kompyuterlarni ta'mirlaymiz, deb har bir

HAM NAZARIY, HAM AMALIY

sinf dan pul yig'ib olingan edi. Lekin haligacha buning natijasini ko'rmadik. Hamma o'quvchilar kompyuterga qiziqishadi. Bu ketishda haliberi kompyuterni to'liq o'rganolmaydigan ga o'xshaymiz. Biz-ku mayli, bu yil maktabni bitirib ketamiz, lekin bizdan keyingi uka va singillarimiz-chi? Ular ham

biz kabi kompyuterda ishlashni faqat orzu qiladilarmi? Biz o'quvchilar uchun eng achinarlisi hozir test imtihonlari kompyuter yordamida topshirilyapti, biz esa kompyuterda ishlashni bilmaymiz. Ishqilib bizdan keyingi o'quvchilarga EHM fanida ham nazariy, ham amaliy dars o'tilsin-da.

Toshkent shahar,

Sirg'ali tumanidagi

305 - maktab

o'quvchilari nomidan 9-

"D" sinf o'quvchisi

Barno ISABOYEVA.



Sinf doshlar inoqligi bois har bir chiqishimiz ko'ngildagidek bo'ldi.

Bunga albatta ustozimizning mashaqqatli mehnatlari sabab. Opamiz bizni odobli, a'lochi o'quvchi bo'lishimizni istaydilar.

Yaqinda opamizning mehnatlari munosib taqdirlandi. Ular «Yil o'qituvchisi» nishonini oldilar. Bundan biz

OPAMIZ JUDA MEHRIBON

Men «Fitrat» nomli maktabda o'qiyman. O'qishlarim ham a'lo. Yaxshi o'qiganim uchun ustozim- Zulxumor opa Ahmedova meni «Alifbe» bayramiga boshlovchi qilib tayinladilar. Opamizning ishonchlarini oqlashga harakat qildim. To'g'ri, oldiniga juda hayajonlandim.

o'quvchilar ham xursand bo'ldik. Mehribon ustozimizga sog'lik, omonlik tilab qolamiz.

Ibrohim NARZIYEV,
Buxoro viloyati,
G'ijduvon tumanidagi
45- maktabning
1- sinf o'quvchisi.

USTOZIMDAN MINNATDORMAN

Xalqimizda «Ustoz -otangdek ulug'» degan naql yuradi. Shu bois biz ustozimizga qanchalik yaxshilik qilmaylik, ularning oldidagi qarzimizdan qutula olmaymiz. Mana, 5 yildirki, men tumanimizdagi 1-sonli bolalar musiqa maktabida musiqa sirlarini chuqur o'rganmoqdaman. Mening ustozim Sharifa opa Aytiniyozova skripka chalishning nozik sirlarini o'rgatmoqdalar. Shu kungacha men ulardan ancha narsalarni o'rganib oldim. Men ustozimga uzoq umr, barcha ishlarida muvaffaqiyatlar tilayman.

Nazira QAYIPBERGANOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Xo'jayli tumanidagi 57-o'rta
maktabning 8-sinf o'quvchisi.

OLIMPIADA OLOVI O'CHMAYDI

Men Parkent tumanidagi «Orom» bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchisi Javohir Ergashevman. Tarbiyachimiz Nigora opa bizlarni juda ham yaxshi ko'radilar. Har doim uyimizga xushkayfiyat bilan kuzatib qoladilar. Bu safar shanba kuni bizga:

-Bolalar, dushanba kuni chiroyli kiyinib kelinglar, bizning ko'chamizdan sportchilar Farg'onaga mash'ala ko'tarib o'tishadi, - dedilar. Dushanba kuni ertalab uyg'onib, yuz-qo'llarimni tozalab yuvdim. Kechqurun oyijonim dazmollab qo'ygan


kiyimlarni kiyib, bog'chaga bordim. Yo'lda

kelayotganimizda ko'chada o'quvchilar, DAN xodimlari juda ham ko'p edi. Aksiga olib, yomg'ir yog'a boshgladi. Biz bosh kiyimlarimizni kiyib, saf tortib turdik. Keyin yo'lga tushdik. Nigora opamiz bizni yo'l yuziga bir qator qilib turg'azib chiqdilar. Bizga qarama-qarshi chiroyli kiyingan, qo'llarida gullar bilan maktab o'quvchilari turishdi. Hamma yo'lga qarardi. Shu payt yonimizda turgan DAN xodimiga «Ratsiya» orqali

«Diqqat, biz yaqinlashib qoldik» degan xabar keldi. Ko'cha tinch bo'lgani uchun bemalol eshitildi. Biz qo'limizdagi shar va gullarimizni chiroyli tutganча yo'lga qaradik. Shu payt uzoqdan yaltiragan narsa ko'rindi. Sportchilar uni qo'lmaqo'l qilib ko'tarib yugurishardi. Yaqinroq kelgach, bu mash'ala ekanligini ko'rdik. Mash'alani ular bir-birlariga avaylab tutqazishardi. Meni oldimdan o'tib ketayotgan bir sportchiga gullarimni tutqazdim. U esa meni boshimni silab: -Polvon bola!-deganча o'tib ketdi.

Ularni ko'rib, juda xursand bo'ldim va kelajakda men ham, sportchi amakim aytganlaridek azamat, qo'rqmas yigit bo'lishga ahd qildim. Men ham albatta ular kabi sport bilan shug'ullanib, kelajakda O'zbekiston sharafini yanada yuksaklarga ko'tarishga harakat qilaman.

**Javohir
ERGASHEV so'zlarini
Nigora opa yozib oldi.**



tabiatshunoslar», «Yosh o'lkashunoslar» yo'nalishlari bo'yicha ish olib boryapti. To'rt y o' n a l i s h bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 45 ta to'garakka 1700 dan ziyod o'g'il-qizlar a'zo bo'lishgan. Ularga 54 nafar m o h i r

Xushxabarning qanoti bor, deganlari rost ekan. Yil boshida markaz direktori Rajab Avezovning tashabbusi bilan «Ziyo» intellektual o'yini loyihasi ishlab chiqilgani va uning tuman televideniyesi orqali namoyish etilishi haqidagi yangilik zumda tumanga tarqalib ketdi. Bu tashabbusni tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinbosari Gulchehra Boltayevaning qo'llab-

ko'rsatuvni intizorlik bilan kutadigan bo'lishgan. Rajab aka Avezov esa yoshlarimizning dunyoviy hamda ma'naviy bilimlarini yanada oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan bu xayrli ishlarni qo'llab-quvvatlovchi homiylar ham topilib qolishiga umidvor...

Markazdan bir olam taassurotlar bilan qaytarkanman, nom uchun, shon uchun emas, kelajagimiz bo'lmish yosh avlod tarbiyasi uchun vijdonan qayg'urayotgan insonlarning borligidan shodlandim.

Feruza JALILOVA.

XUSHXABARNING

murabbiylar

QANOTI BOR

Bir tanishim, yo'lingiz tushib, Buxoroga borsangiz, G'ijduvon tumanidagi «Bolalar va o'smirlar markazi»ga albatta kiring, deya maslahat bergandi. Uning so'zlariga amal qilib, xalq ta'limi tizimidagi mazkur dargoh sari yo'l oldim. Xizmat yuzasidan bunday maskanlarga tez-tez borib turamiz. Ayrimlarining eshigiga osilgan kattakon qulfni ko'rib, ranjib qaytgan bo'lsak, boshqalarining hech kim yo'qligidan huvullab yotganining guvohi bo'lganmiz. Bu yerdagi manzara esa butunlay boshqacha edi. Binoga kirishingiz hamonoq bolalar qo'li bilan yasalgan ishlarga ko'zingiz tushib, dilingiz quvnaydi. 1997 yilda tashkil qilingan mazkur markaz «Yosh texniklar», «Bolalar badiiy ijodiyoti», «Yosh

kasb-hunardan saboq berish yapti. O'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish bilan birga, o'zlari yasagan mahsulotni bozorga olib chiqib, moddiy manfaaddor bo'lish yo'llarini ham o'rgatishyapti. Shogirdlari har yili bo'lib o'tadigan iqtidorli bolalar anjumanida qatnashib, «Yosh texniklar», «Yosh tabiatshunoslar», «Yosh o'lkashunoslar» yo'nalishlari bo'yicha faxrli 1-3- o'rinlarni egallab kelishganda, ularning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi...


Ustozlari shogirdlarning mehnatlari, tinimsiz izlanishlari bois 1997 yilda viloyatda 13-14 o'rinlarda bo'lgan mazkur jamoa bugungi kunga kelib barcha sohadagi ko'rsatkichlar bo'yicha birinchi o'ringa chiqib oldi.

quvvatlashi bois 100 dan ziyod bilimdonlar klubga taklif qilinib, maxsus tuzilgan testlar asosida sinovdan o'tdilar. Markazning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha yordamchisi Shahlo Ma'murova, xodimlari Feruza Ostonova, Erkin Boboyev va G'ayrat Avezovlardan bolalar orasidan 24 nafar eng iqtidorlilarini tanlab, 4 ta guruh tayyorlashdi. Tuman aholisining katta-yu kichigidan turli qiziqarli savollar «oqib» kela boshladi. Rajab aka Avezov savollarni tahlil qilib, ko'rsatuvni tayyorlash va uni texnik jihozlash ishlarini o'z zimmasiga oldi. Bugungi kunda nafaqat tuman, balki qo'shni tumanlar aholisi ham har shanba soat 7.30 da beriladigan mazkur





XX - asrning eng muhim halokatlaridan biri deb e'tirof etilgan Chernobil halokatiga ham o'n besh yildan oshib ketdi. Mana shu qabul qildi. Qarorda Chernobilning nogironlari, ta'minlashda o'z qatnashchilari, hissalarini qo'shib kelmoqdalar. Yaqinda Xo'jaobod tumani Chernobilchilar jamiyati tumandagi 25 - maktabda Chernobil nogironlarining himoyalash borasida o'quvchilar bilan



taassurot qoldirdi. Bu yulduzi » esa yosh avlodni o'quvchilari, o'zbekona farzandlarim qadriyatlarimiz negizi e'tiboriga Chernobil bo'lmish odamiylik, halokatidan aziyat mehr - oqibat, Vatanga chekkana muhabbat va xalqiga yurtdoshlarimiz sadoqat ruhida tarbiya haqida yozgan topishida ijobiy she'rimni havola natijalar beradi deb qilyapman. o'ylaymiz. Quyida «Tong

KEMTIK KO'NGILLAR SHOD BO'LDI

halokat tufayli minglab yurtdoshlarimiz aziyat chekib qoldilar. Ular halokatni bartaraf etish ishlarida vijdonan mehnat qildilar va oxir - oqibat o'linga olib boruvchi dardga muhtalo bo'ldilar. Respublikamiz Hukumati ana shu yurtdoshlarimizni ijtimoiy tomondan qo'llab - quvvatlash maqsadida qaror qator chora - tadbirlar uchrashuvi bo'lib o'tdi. va imtiyozlar Maktab ma'muriyati belgilangan. Uning bilan hamkorlikda asosida joylarda o'tkazilgan bu Chernobilchilar uchrashuv jamiyatlari tashkil yig'ilganlarda katta

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QANDAY BAYRAMLAR JORIY ETILGAN?

- O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi bayramlar / dam olish kunlari/ joriy qilingan: 1 yanvar - Yangi yil, 8 mart - Xotin-qizlar kuni, 21 mart - Navro'z bayrami, 9 may - G'alaba kuni, 1 sentyabr - Mustaqillik kuni, 1 oktyabr - O'qituvchilar va murabbiylar kuni, 8 dekabr - Konstitutsiya kuni: Milliy bayramlar «Ramazon hayiti» («Iyd al-Fitr») va «Qurbon hayiti» («Iyd al-Adha»)ning birinchi kunlari.

Sakson oltinchi yilning Ayni bahor chog'ida, Ko'klam hidi kezardi O'lkamning har yog'ida.

Ukraina elining Chernobil tumanida, Bir AES qurilardi Dnepr qirg'og'ida.

Soatlarning millari Ikkiga urmasdan bong, Kuchli alanga chiqdi Ulgurmasdan otib tong.

Rangsiz, hidsiz, tovushsiz, Ajal urug'in sochdi. Ishchilar bo'lib xushsiz Na turoidi, na qochdi.

H A L O K A T

Halokat yaqinidan Aholi ko'chirildi, Ming mashaqqatlar bilan Alanga o'chirildi.

Lekin, beshafqat taqdir O'z ishini qilgandi, Turli nurlar tarqalib, Necha o'lka bulg'andi.

Yurtboshim - Islom bobo Elning tinchligin o'ylab, Xalqaro anjumanda Katta bir nutq so'zlab.

Ezgulik, savob dedi, O'tganlarni xotirlash.

El - yurti uchun yonib Kelganlarni qadrlash.

Bayram deb e'lon qildi To'qqizinchi may kunni, Poytaxtda bunyod etdi Xotira maydonini.

Toki hayot bor ekan, Bo'lar ba'zan halokat - Yurting uchun farzandsan, Ko'rsat mardlik, jasorat!

*Isroil SOTVOLDIYEV,
2 - guruh nogironi.
Andijon viloyati, Xo'jaobod
tumani, Chernobilchilar
jamiyatining raisi.*



Aziz bolalar!

Sizlar ezgulik, oliyjanoblik, mardlik, jasurlik, sahovat degan gaplarni ko'p bora o'qiysizlar, oynay-jahondan, radiodan eshitasizlar. Biz ham sizlarning yoshingizda mana shu so'zlarni o'qirdik, eshitardik, lekin ma'nosi ga tushunolmay bir oz qiynalar edik. Mazkur so'zlar bir-birlarini to'ldiradi. Bir-birlari bilan

chiqqan g'o'zalardan, bosh tortib yotgan bug'doylardan zavqlanib Mustaqillik taraqqiyot yo'lida ulkan imkoniyatlar yaratib berganiga guvoh bo'ldim.

Sobir Rahimov shirkat xo'jaligida 5 ta o'rta maktab, 3 ta bolalar bog'chasi mavjud ekan. Maktab binolarini ko'rib ko'zlarim quvonib ketdi. Hammayoq saranjom-sarishta. Binolarni ta'mirlash

«Mustaqillik» bayramlarida maktab bolalari ham, bog'cha bolalari ham sovg'a-salomlarni to'la olishar ekan. Undan tashqari mol so'yilib, sumalak pishirilib, halim damlanib, katta to'y qilib berilar ekan. A'lochi bolalar doimiy ravishda moddiy tomondan qo'llab-quvvatlanar ham ekan. Bolalar jismoniy tarbiya musobaqalariga boradigan bo'lsa,

BOLALARGA KELAJAKKA

musobaqasida

2 - o'rinni olish baxtiga muyassar bo'libdi. Beshta maktabda 300 ta o'qituvchi 3500 ta o'quvchiga ustozlik qilar ekan. Bolalar bog'chasida 300 ta bolaga 60 ta bog'cha opa tarbiyachi ekan.

bolam,

ishlarni to'g'ri yo'lga qo'ymasam, uzluksiz ravishda yutuqlarga erishmasam, katta daromadlar qilmasam, qanday va qay holda ezgulik

SO'ZLAR SIRIN OCHIGAN KUN

bog'lanib ketadi. Ifodalaganda, tasvirlaganda esa ma'no jihatidan bir-birlarini to'ldiradi. Odamzod farzandlari umr bo'yi mana shu so'zlarni ifodalaydigan, ya'ni insonni yaxshilikka chorlaydigan go'zallik mazmuniga mushtoq bo'lib o'tadi.

Men yaqinda Surxondaryo viloyati, Denov tumaniga qarashli «Sobir Rahimov» nomli shirkat xo'jaligida bo'lib, shu xo'jalikning raisi, O'zbekiston Qahramoni Ibrohimjon Fayzullayev bilan uzoq suhbatlashib, xo'jalikning yerlarini kuzatib, dalalaridagi qiyg'os ko'karib

qoyilmaqom qilib amalga oshirilgan. Raisning o'zlari maktab binolarini ta'mirlashda har yili boshchilik qilar ekanlar. To chiroyli va ko'ngildagiday ta'mirlanmaguncha nazorat qilishni qo'ymas ekanlar. Bog'chalarga ham shunday diqqat e'tiborda bo'lar ekanlar. Bog'chalarni sut, tuxum va go'sht bilan ta'minlash ham shu shirkat xo'jaligi zimmasida ekan. Davlatimiz tomonidan rahnamolik qilinsada, xo'jalik ham otalik, ya'ni qadrdonlik mehrini unutmagan holda yaxshiliklarini ayamas ekan. Turli bayramlarda, masalan, «Navro'z»,

oziq-ovqat va ulovni ham jamoa xo'jaligi ma'muriyati o'z zimmasiga olar ekan. Musobaqada yutib chiqqanlarga esa alohida moddiy yordam bilan e'zoz ko'rsatilar ekan. Shirkat xo'jaligi maktab o'quvchilaridan Abdusalom Norqulov Respublika kurash chempionatida 3 - o'rinni olibdi. Alimardon Mamadaliyev ham 3 - o'rinni olish baxtiga muyassar bo'libdi. Shaxmat bo'yicha Respublika birinchiligida Samandar Karimov 3 - o'rinni olib, sport ustaligiga nomzod normasini bajaribdi. Xo'jalik futbolchilari esa «Oq oltin» kubogi

Xo'jalikda maktablarga, bog'chalarga, kam ta'minlangan oilalarga bir yilda 7 million so'm yordam puli tarqatilar ekan. Bu hazilakam mablag' emas. Bunday katta pul mablag'ini yordam uchun ajratish hamma shirkat xo'jaligi ma'muriyati qo'lida kelavermaydi. Rais bobo o'quvchilar bilan suhbat qurib, so'zlarini tinglab, iltimoslarini bajo keltirar ekan.

Xo'sh? Har qanday ezgulik birgina niyat bilan yo'q. Armon bilan amalga oshadimi? Masalan, men ezgulik uchun xizmat qilishni istayman. Agar men biror xo'jalik raisi

uchun xizmat qilishim mumkin?! Cho'ntagida katta mablag'i bo'lmagan odam ezgulikka faqat yaxshi gapirish, yaxshi muomalada bo'lish, birovlarining dilini og'ritmaslik yo'li bilangina xizmat etishi mumkin.

Aziz bolalar!

Yuqorida biz sizlar bilan oliyjanoblik va mardlik haqida suhbatlashdik. «Oliyjanoblik» so'zining asl ma'nosi ga tushunasizlar deb o'ylasam-da, yana bir marta esingizga solib qo'ysam foydadan holi bo'lmaydi. Ibrohimjon akaning oliyjanobligini qayerdan bildingiz deb so'rashlaringiz mumkin. Men shu shirkat xo'jaligini

QAYG'URMOQ = QAYG'URMOQ

aylanib, oddiy xalq, oddiy mehnatkash bilan uchrashib, suhbatlashganimda ma'lum bo'ldiki, Ibrohimjon aka men o'ylaganimdan ham ko'ra oliyjanobroq, mardroq bo'lib chiqdilar. Masalan, maktablarga, bog'chalarga, mehnatkashlarga doimiy ravishda moddiy yordam berib turar ekanlar, bu borada hech kimni, hech qachon kamsitmas ekanlar. Xatna to'ylarida, nikoh to'ylarida, boshqa to'ylarda mehnatkashlarga doim qo'y, un, guruch, yog' va qanddan yordam qilish an'anaga aylangan ekan.

Bu shirkat xo'jaligi chindan ham rejalarini o'rinlatgani evaziga shunday ezguliklar qilmoqda. Bunda esa rais Ibrohimjon akaning beqiyos darajadagi xizmatlari bor. Mana qarang, xo'jalikning sug'oriladi-gan 500 gektar yeridan 2001 yili 60 sentnerdan hosil ko'tarilibdi. 609 gektar paxta maydonidan shu yili 49 sentnerdan hosil olinibdi. Bu raqam 2002 yili g'alladan

70 sentnerga, paxtadan esa 55 sentnerga ko'tarilar ekan.

Xo'jalik asosan Surxondaryo viloyatiga ham g'alla, ham paxtadan urug' yetkazib berishga rejalashtirilgan. Shirkat xo'jaligi g'alla urug'larini asosan Rossiyaga borib, eng oliy navlarini oltin hisobiga sotib olib kelishar ekan. Buning uchun mustaqillikning sharofati bilan davlatimiz bu xo'jalikka alohida pul fondi ajratgan ekan. Urug'lik g'alla maxsus vagonlarda olib kelinar ekan. Chet ellardan olib kelingan g'alla urug'lari havosi toza, suvi toza, yerlari serhosil Sobir Rahimov shirkat xo'jaligida kutilganidan ham ko'ra yuqori hosil berar ekan. Axir bu ham raisning uddaburonligi, mehnatkashligi tufayli amalga oshiriladimi, yo'qmi?! Albatta, oshiriladi. Xo'jalikda bugungi kunda g'o'zalar unib chiqib, yagana ishlari boshlab yuborilgan. G'alla bosh tortib yotibdi. Hademay g'allaga o'roq tushadi.

Yuqorida biz sizlar bilan sahovat, jasurlik va mehnat haqida ham suhbatlashdik. Ibrohimjon bobongizning o'quvchilarga, o'qituvchilarga, o'z qaramog'idagi mehnatkashlarga ko'rsatayotgan yaxshiligi ham sahovat, ham jasoratga, ham mehnatga kiradi. Jasoratsiz odam hech qachon, hech kimga sahovat ko'rsata olmaydi. Sahovatsiz odam ezgulikka xizmat qilolmaydi. Jasoratsiz, sahovatsiz, ezgulikni o'ylamagan odam mehnatkash bo'lolmaydi. Mehnatkash bo'lmagan odam esa na sahovatga, na jasoratga, na ezgulik qilishga yaramaydi. Demak barcha insoniy go'zal hislatlarning hammasi bir-birlari bilan mantiqan bog'liq tushunchalar. Yomon odamlarda bunday tuyg'u, tushunchalar bo'lmaydi.

Men Surxondaryo viloyatidagi Sobir Rahimov shirkat xo'jaligiga borganimda shunday go'zallikka, Mustaqillik tufayli erishilayotgan ulkan yutuqlarga duch keldim va sizlarga hikoya qilib berishga jur'at etdim. O'ylaymanki, Siz aziz o'quvchilar



O'ktam
HAKIMALI.

ham Ibrohimjon bobongizga o'xshab doim ezgulikka xizmat qilishga intilasiz. Sahovat, oliyjanoblik, halol mehnat yo'lida doim jasurlik ko'rsatasiz, sizlarga hurmat bilan yozuvchi:



DILDORA



Qon'skur



yashab, hozirda qizi. Ukalarining 12 - o' r t a maslahatchisi. Bo'sh maktabning 6- vaqtlarida she'rlar «A» sinfida a'lo mashq qiladi. b a h o l a r g a She'rlarining birinchi o'qimoqda. Nega o'quvchisi uning 6-sinfda o'qiydi, dadajonisi hamda deb hayron onajonisidir. Onasi bo'layotgandirsiz? Feruza opa ham o'sha m a k t a b d a

qiziquvchan qiz. otilib chiqayotgan Yaqinda uning «Oq satrlaring yorqin yo'l, Dildora!» nomli bo'lsin, hayotda she'riy kitobchasi shoira bo'lib o'z nashrdan chiqdi. Ijod o'rningni topa namunalari Andijon olishingda televideniya sinifining tilakdoshmiz. b o l a l a r Tuhfaniso ko'rsatuvlarida ko'p ORTIQBOY qizi. marotaba namoyish etilgan.

Tengdoshingiz Dildoraxon Samadova mustaqillik tengdoshi. U Izboskan tumanidagi To'rtko'l qishlog'ida

Bolaligidanoq adabiyot va san'atga ishtiyoqmand bo'lgan Dildora bir yilda ikki sinfni tugatgan. Uyda Dildoraxon oyisining b e m i n n a t Ustozlarining yordamchisi. e'tiroficha, Dildora Dadajonisining erka juda iqtidorli,

Jajjigina qalbingdan

MUSTAQILLIK TENGDOSHIMAN

*Mustaqillik tengdoshiman,
Hur vatanning bolasi.
Unutilmas lahzalarda,
Ko'z ochgan gul lolasi.*

*Baxtimdan o'rgilayin,
Tug'ildim go'zal yurtda.*

*Bunda yashagan inson,
Kamol topar albatta.*

*Navoiy, Temur bobom,
Ajdodlarimdir buyuk.
Ulardek ulug' zotlar,
Dilga yaqin va suyak.*

*Shu vatanga munosib,
Farzand bo'lib qolaman.
Yurtimning ravnaqi chun,
Dildan xizmat qilaman.*

SUMALAK

*Sumalakni odamlar
Bahor payti yeyishar.
Sumalak xo'p tansiq-da,
Yana bormi deyishar.
Gar bilsangiz sumalak,
Farishtalar taomi.
Shu boisdan lazzatning,
Bo'lmas sira tamomi.*

ONAMNING "SHOIRA" QIZIMAN...

Ba'zida maktabdagi ustozimiz «O'zingiz uchun eng sevimli inson haqida yozing» deyilar. Shunda men onam haqida yoza boshlayman. Biroq, ularni ta'riflashga soc'z topolmay to'xtab qolaman. Onajonimning ajoyib ayol ekanligini qay so'zlarda aytsam ekan-a? Axir men onam tufayli keng olamni tanidim, dunyoni bilgach esa onamning yanada yaxshi ekanliklarini angladim. Xayolimdan shunday satrlar o'tdi:

Onam aziz, mehribon,

Olam yorug', bepoyon.

*Doim tinch bo'lsin olam,
Doim sog' bo'lsin, onam!*

Gohida she'r daftarimni varaqlab ko'rib, onam «o'zimning shoira qizim» deb erkalaydilar. Men kelgusida shoira bo'lib onamni quvontirsam deyman. Mana, bolalik damlari ham o'tib bormoqda. Yaqinda bolalik haqida shunday bir she'r yozdim:

*O'g'iloy O'LDOSHEVA
Jizzax viloyati,
Do'stlik tumanidagi
2 - maktab oquvchisi.*

BOLALIK

*Bunchalar go'zalsan bolalik,
Bag'rida yayratar bog'laring.
Xayolimdan ketmaysan aslo,
Tolbargak yasagan chog'larim.
Bezatgandik ko'chalariningni,
O'tli, olov orzular bilan.
Endi-chi, biz ulg'aydik ancha,
Oldda chorlar maqsadlar - ulkan.
Kelajakda o'qib, izlanib,
Ona yurtga bo'lamiz qanot.
Lekin dilimizda bir umr,
Yashar senga bo'lgan sadoqat!*





Saodat opa avvalgi sinf rahbarlarimizga sira o'xshamaydi. Darsdan «quyon» bo'luvchilarga ham, uch kunlab sababsiz kelmay qo'yuvchilarga ham beparvo. Jahli chiqsa ham baqirib urushmaydi.

Bolalar bu erkinlikdan rosa bir oy mazza qilib yayrashdi. Ayniqsa, Dilshod behad taltayib ketdi. Shu bir oyda sanoqli uch kun darsga keldi, xolos. O'ttiz nafar o'quvchiga yetarli partalar onda-sonda to'liq bo'ldi. Kutilmaganda sinf yig'ilishi bo'ldi. Gap, albatta

"MEHRIBONLAR"

(Hikoya)

BOBO BO'LIB QOLIBDI

Farg'onalik ijodkor o'qituvchi Vali Ahmadjonni sizlarga tanishtirishning hojati bo'lmas kerak. Chunki u kishining ajoyib she'rlari, hikoyalarini gazetamiz sahifalarida juda ko'p o'qigansiz. «Yetti o'lchab, bir kes», «Gulxumorning gulbog'i» nomli kitoblarini, «Boychechak», «Yoshlar ovozi» to'plamlaridagi turkum she'rlarini ham maroq bilan o'qigandirsiz.

Ayni kunlarda umrining endigina navqiron pallasi - 50 yoshga qadam qo'yayotgan Vali Ahmadjonni munavvar kunlari bilan samimiy qutlab, yangi-yangi she'rlar, hikoyalar kutib qolamiz.

intizomsizlar haqida deb o'ylarsiz. Yo'q. Aksincha bo'ldi.

-Bolalar, sizlarga havasim keladi, - dedi Saodat opa. - Faqat bir narsa menga yoqmayapti.

-Ayting opa. Nima ekan u? - dedi Sarvar xotirjam.

-Bir-biringizga mehribon emassizlar. Attang, - dedi u

bosh tebratib.

-Yo'g'e! - dedi Halim ko'zlari pirpirab.

-Ha, rost, - deya gapida davom etdi Saodat opa. - Kim darsga sababsiz kelmasa, ertasigayoq hamma uni

ko'rgani borishi kerak. O'sha o'rtog'ingiz ham, ota-onasi

ham xursand bo'ladi. Bugun Dilshodlarnikiga boringlar.

Darsga kelmadi...

Darvozani Dilshodning o'zi ochdi. Uylari chiroyli ekan. Avval hovlidagi gullarni tomosha qildik. Yoqqanini uzib hidladik. Keyin kuchukchasini uzun arqonga bog'lab, sudrab o'ynatdik. Hali pishmagan olmalarni duv to'kib, rosa yedik. Dasturxonga qo'yilgan nonu shirinliklarni paqqos tushirdik. Cho'ntaklar esa qappaydi...

Salimlarnikiga borganimizda esa koptogini uy ichida tepib o'ynadik. Kutilmaganda oyna sindi-yu ura qochdik... Partalar bolalar bilan to'liq... -Iloho ko'z tegmasin, - deya Saodat opa jilmaygani - jilmaygan.

Qiziq. Buning siri nimada ekan-a? Topish sizdan, sovg'a bizdan.

Vali AHMADJON.

Yangi kitob

ANA SHUNISI NOTO'G'RIDA

Bir talaba imtihon vaqtida qo'ynidan kitob chiqardi- da, kerakli varag'ini yirtib olib, yaxshilab ko'chirdi. Javob berish gali kelganda minbarga chiqib, qog'ozdagini sharillatib o'qib berdi-da, qoyil qilib tashladimmi, degandek o'qituvchiga bepisand qaradi.

- Noto'g'ri, - dedi o'qituvchi ko'zoynagini to'g'rilab.

- Noto'g'ri? Nimasi noto'g'ri?

- Hammasi noto'g'ri.

- Domla, siz o'z faningizni bilmas ekansiz, buni kitobdan ko'chirdim-ku, - deb o'quvchi kitob varag'ini jahl bilan tashladi.

- Ana shunisi noto'g'ri- da, - dedi o'qituvchi.

Omon bo'lsa
O'zbekistonim,
Yarim bo'lmas hech
qachon nonim.

Ushbu misralar Dilbar Muhammadaliyevaning «Haydar Muhammad: ... va hangomalar yozganman» deb nomlangan kitobidan joy olgan.

Shoir va dramaturg Haydar Muhammad siz aziz o'quvchilar uchun ham badiiy asarlar yozgan.

Adibning «Toshkentning nozanin malikasi», «Jinoyat ustida ushlansin» kabi asarlari, «Temir erkak» badiiy filmi sizlarga tanish.

Ayni kunlarda Haydar aka O'zbek milliy akademik drama teatrida adabiy bo'lim boshlig'i, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi dramaturgiya kengashi raisi bo'lib ishlab kelmoqdalar. Shuningdek, o'zlari yashaydigan «Beshqayrag'och» mahalla fuqarolar yig'ini raisi.

Ona bag'ri shifoxona,
Ota uyi oromgoh.

«Odam ishxonaga sig'masa mahallaga sig'adi, mahallaga sig'masa...» deb yozgan adib mahalladagi har bir tadbiru yaxshi ishlarga bosh. Sababi, mahallada shoir deb nom olgan Haydar Muhammadni kattayu kichik birdek hurmat qiladi.

Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyotida chop

ДИЛБАР
МУХАММАДАЛИЕВА

ХАЙДАР
МУХАММАД:
ВА ХАНГОМАЛАР
ЕЗГАНМАН



etilgan mazkur kitob bilan yaqindan tanishsangiz, adib haqida ko'proq ma'lumotlarni bilib olasiz.

Shuningdek, kitob sahifasining yuqori qismida adibning asarlarini, pastki qismida maqolalar, taqrizlar, suhbatlarni o'qiysiz.



TA'MAL TOSHI

«Yoshlikda olingan ilm toshga o'yilgan naqshdir», deyiladi payg'ambarimizning hadislaridan birida. Bu naqsh - umrimiz naqshi:

U hayotimizni, yurtimizni bezaydi. Ilmu fan rivojlangan mamlakatlar shakli shamoyili bilan buni tasdiqlaydi. Amerikani yoki bo'lmasa Yaponiyani olaylik. Ularda soliq tizimi olamshumul yutuqlarga ega!

«Amerika yosh mamlakat,-deydi O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Ali o'zining «Men ko'rgan Amerika» essesinde amerikaliklarga qarata - tarixi ham nisbatan yosh, qadimda dunyoviy davlatlar bo'lmagan. Shuning uchun sizlar jahondagi eng ilg'or mamlakatlari, davlatlar tajribalariga suyanib ish yuritishga harakat qilasizlar. Bizning mamlakatimiz esa,-deydi Muhammad Ali so'zini davom ettirib, juda qadimiy yurtlardan, jahon madaniyatining nodir

maskanlaridan biri». Ha, allomalarimiz davlatchilik ta'mal toshini qo'yishgan.

TAN OLINGAN ALLOMALAR

Ulug' allomalarimiz davlatchilikda ta'mal toshini qo'yib ketishgan. Bunda ularga «yoshlikda olingan bilim» asos bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan bizning Yaponiya yoki Amerikadan ortiq jihatlarimiz bor-ki, kam yerimiz yo'q! To'g'ri aytdimmi?

«To'g'ri aytasiz,-deyishadi amerikaliklar Muhammad Ali akaning fikriga qo'shilishgan holda,-so'zlaringizda mantiq bor, sharoitni hisobga olib ish yuritmoq zarur». O'ylaymanki, o'sha suhbatdoshlar mening fikrimga xayrxohlik bildirgan bo'lishar edi. Chunki, jahon sivilizatsiyasiga o'zlarining munosib ma'naviy ulushlarini qo'shgan fozil insonlarimiz - shu bobokalonlarimizni dunyo tanigan va tan olgan - «besh ketgan»! Ular chindan ham

zo'r iqtisodchi bo'lishgan-da!

FOZILLIK DEBOCHALARI

Endi yoshlarimiz yelkasiga ulkan mas'uliyat - mustaqil O'zbekistonimizning dovrug'ini olamga yoyish yuki tushyapti - shu fikrimga nima deysiz? Inkor etolmaysiz. Bu - bor gap! Ayniqsa, soliq tizimi bo'yicha! Men yaqinda ana shu mas'uliyatni his qilgan holda bilim olayotgan bo'lajak

ochildi, ular faoliyat yuritib, bo'lajak soliqchilarga ta'lim va tarbiya berib, jahon andozalari va talablariga «labbay» deya oladigan, yurtini boy qiluvchi milliy kadrlar yetishuviga ta'mal toshini qo'ymoqda. Bu k o l l e j l a r mamlakatimizning qaysi shaharlarida mavjudligi bilan qiziqayotgan bo'lsangiz, aytib qo'yay: soliq kollejlari Toshkent, Buxoro shaharlari va

shu kollejlardan birida - Qirgulidagi soliq kollejida bo'lib, u yerda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari bilan tanishdim. Ishlar esa «besh» - ko'rgan kishi havas qilsa arzigulik! Bu yerda bugungi kunda 140 nafar talaba ikki bosqichda o'z bilimni boyitmoqda, soliq tizimi bo'yicha bilimdonlik cho'qqilarini egallamoqda. Eh, ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarni bir

BO'LAJAK

soliqchilar - tirishqoq o'smirlar huzurida bo'ldim.

DAROMADGA YARASHA BUROMAD

Hali misol keltirgan-larim Amerikaning ham, Yaponiyaning ham taraqqiyotida soliq yetakchi ahamiyat kasb etadi. U chindan ham har bir mamlakat tayanchi! Fuqarolarni ijtimoiy muhofaza etishda, mamlakat kuch-qudratini, salohiyatini oshirishda soliq ana shu muhim rolni o'ynaydi. Xuddi shu maqsadda ham mamlakatimizda soliq kollejlari

Farg'ona viloyatining Qirguli shaharchasida o'zining amaliy faoliyatini boshlaganiga ancha bo'lib qoldi! Mamlakatimizda daromadga yarasha buromad - ya'ni, soliq tizimining takomillashtirishga, yangilashga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat bu!

Men yaqinda ana

ko'rsangiz edi! Top-toza xonalar, har bir xonada ikkitadan talaba istiqomat qiladi. Yumshoq divanlar, televizor, radio tarmoqlari... Xullas, super sharoit! Shuni ko'rib «O'g'lim Sardor hali yoshda...» deya xayolimdan o'tkazdim. Agar 11-sinfni bitirganida bormi, albatta, shu kollejga jo'natgan bo'lardim! Lekin soliq kollejiga kirishning o'ziga



yarasha talab va qoidalari bor ekan. Avvalambor, bo'lg'usi talaba jismonan sog'lom, askarlikka loyiq deb topilishi zarur ekan. U harbiy - tibbiy tanlovdan o'tib, o'zi yashab turgan shahar, tuman soliq inspeksiyasining tavsiyasi bilan o'qishga yuborilar ekan. U 17 yoshdan 21 yoshgacha bo'lmog'i

kabi. Tartib-intizom kuchli! Bu kollejni bitirib chiqqanlar haydovchilik guvohnomasiga ham ega bo'lishar ekan.

UCH DUGONA

Ana kursantlar harbiychasiga saf tortib, odimlab kelishyapti. Ularga qarab hayratdan yoqa

Iqtisod fanlari doktori! Murabbiylar ham havas qilgulik - odamoxun, dilkash insonlar ekan. Yoshlar ularning g'amxo'rliqi ostida emin-erkin bilim olishmoqda. Axir soliq tizimi iqtisodga asoslanadi-da! Yoshlar esa ana shu mehribon ustozlarga tayanishadi.



tizimi tekshiruvlarida ko'zga chalinayotgan «ustomon»lar ro'y-rost fosh qilinmoqda. Kollej kursantlari esa xuddi Sherlok Xolms yoki Erkyul Puarodek o'z kasblarining izquvarlari bo'lishadi! Ular raqamlar ortida qanday qing'irliklar yotganligini birpasda ilg'ab olishadi! Mustaqil mamlakatimizga ana shunday ziyrak, zukko soliqchilar kerak! «Soliq - qullik emas, erkinlikdir», deganida iqtisodiyotchi olim A.Smit ming bora haq. Bizning demokratiyamizning shakli shamoyiliga tashxis qo'yish ana shu bo'lajak soliqchilar zimmasiga tushadi.

MUHAMMADAN-NING ORZUSI

Qiziq ism ekan, sezdingizmi? Muhammadan Ziyovutdinov bugun bo'limi bo'yicha navbatchi ekan. Katta kursant bilan suhbatlashdim.

-Puxta tayyorgarlik ko'rib, mart oyidan avgust oyigacha darsliklarning «tit-piti»ni chiqarib yubordim,- Natijasini ko'rib turibsiz - ham

harbiyman, ham talabaman. Bitta o'q bilan ikkita quyonni uryapmiz-da, aka! Akademiyaga kirib o'qish niyatim bor. Hozir test axborotnomalari bo'yicha kitob «tatalayapman».

-Kollejda qaysi fanlarga ko'proq urg'u beriladi?

-Iqtisodiyot, kompyuter, ingliz tili, soliq buxgalteriyasi hisobi, soliq huquqlari bo'yicha «suyagimiz qotyapti»...

Shu oxirgi jumladan ikkalamiz qotib-qotib kulamiz. «Yashavor, hazil-kash! Omadingni bersin!», deyman ichimda.

Muhammadan menga 4 mingga yaqin kitob fondi bo'lgan kutubxona, ajabtovur - kiroyi sport zallari, shirin taomlari bo'lgan ishtahani qitiqlovchi shinam va muhtasham oshxona, zamonaaviy auditoriyalarni ko'rsatdi. Hammasi zo'r!

SOLIQQCHILAR

shart ekan. Bu qat'iy talabning birinchi bosqichi. Ikkinchi bosqich bo'lajak talabalardan puxta jismoniy tayyorgarlikni talab etar ekan. Bunda siz barcha normativlar - yugurish, kross, 100 metrlik qisqa masofada peshqadam bo'lmog'ingiz shart ekan. Ana sizga chiniqish sinovi!

Uchinchi bosqichda esa test sinovlari: matematika, o'zbek tili va adabiyotdan bilimingiz sinab ko'riladi. Shu so'nggi marradan ham o'tib olsangiz - «oshig'im olchi» deyavering! O'qish muddati 3 yil: 2 yil o'qish, 1 yili esa amaliyot. Bilimdonlik yillari harbiylashtirilgan, xuddi armiyadagi

ushladim:

«E, tavba, ular ichida qizlar ham bormi?..» Sinchiklab qaradim - ko'zlarim aldama bdi. «Obbo, azamatxonlar-ey! Juda zo'r-ku!»

Mening sinchkov nigohimni ilg'agan Orif Qodirovich Umarov kulib qo'ydi:

«Bular Fotima va Zuhra Ognevalar Namangandan, Roksanana Jamoliddinova esa - Andijondan Chayirlik, bilimdonlikda yigitlardan qolishmaydi!». «Bo'sh kelmang, qizlar!» dedim.

Orifjon aka - o'quv ishlari bo'yicha kollej rahbari Odil aka Ibrohimovning o'rinbosari. Iqtisod fanlari nomzodi. Odil akani aytmaydizmi!

DEMOKRATIYA: AVVAL IQTISOD, KEYIN SIYOSAT

Yana Amerikaga qaytamiz. Xayolan, albatta.

«Ha, Amerikada demokratiya bor va uning huquqlari amaldadir,- deydi sizga tanishtirib o'tgan taniqli shoirimiz Muhammad Ali,- Amerikada demokratiyaning bag'ri nihoyatda keng,-deb ko'chirma keltiradi Igor Burichning «Partiya oltinlari» kitobidan - u o'z fuqarolariga faqat bitta narsani - soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashni kechirmaydi, xolos».

Bizda esa... Xuddi shu maqsadda ham «Tayanch» ko'rsatuvi, vaqtli matbuotda soliq

ONANGDEK MEHRIBON BO'LOLMAS HECH KIM

Yaxshi-yomon kunimda onangdek dilkash,
Dardlaringga darmon bo'lolmas hech kim.
Dilingdagi gapni to'g'ri tushunib,
Ko'zingdan onangdek uqolmas hech kim.
Bu ma'sum qalbingga qalbini bog'lab,
Onangdek mehrini berolmas hech kim.
Go'dak chog'laringdan guldek ardoqlab,
Ham suyub, ham sevib boqolmas hech kim.

*Dildora QURBONOVA,
Samarqand viloyati,
Toyloq tumanidagi
34 - maktabning 8 - sinf o'quvchisi.*

OTAJON

Mehnat qilib tolmanan,
Ishlab sira tolmanan,
Bizsiz yashay olmagan,
Otajonim sog' bo'ling.
Boshimizni silagan,
Xato qilsak siylagan,
Bizga omad tilagan,
Otajonim sog' bo'ling.

*Mahmudjon AZIMOV,
Shayxontohur tumanidagi
169 - maktabning
5 - «A» sinf o'quvchisi.*


Bizning to'garak



FERMIZIM, QUTLUG' HOSHING MUBORAK!

Ilmu ma'rifat koni,
Termiziylar makoni,
Shaharlarning sultoni,
Qutlug' yoshing muborak!
Ertangi kuning porloq,
Tarixing juda uzoq,
Navqiron, yoshsan biroq,
Qutlug' yoshing muborak!
Yurtimiz ozod bo'ldi,
Termizim obod bo'ldi,
Elim xurram, shod bo'ldi,
Qutlug' yoshing muborak!

*Zargul QUDRATOVA,
Surxondaryo viloyati, Muzrabot
tumanidagi S.Ayniy nomli
8 - o'rta maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.*



OQ GULIM

Surati qalbinga o'yilgan gulim,
Oppoq orzularning go'zal elchisi.
Ko'ngilga ko'ngilni bog'lab turuvchi,
Umidlar shamshiri, sevgi kuychisi.
Oshiqdar yo'lini yorituvchi sham,
Ko'ngil sirlaridan oppoq oqargan.
Bildim, gulim kosasiga shudringdan emas,
Hijron arig'idan yoshlar oqarkan.



Xolida AKBAROVA,

Respublika Nafis san'at litseyining 10 - «A» sinf o'quvchisi.



CHAQIMCHI

Chaqma-chaqar kim o'zi?
Gapni olib qochuvchi.
Hech kimga u do'st emas,
Do'stin sirin ochuvchi.
Maktabdan u gaplarni,
Qoplab uyga tashiydi.
So'ng uyidan maktabga,
Gaplar tashib yashaydi.



*Oybekjon IZZATOV,
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on shahridagi
9 - o'rta maktabning
7 - «V» sinf o'quvchisi.*

QUYOSH

Tog'lar bag'ridan,
Chiqar nur sochib.
Kutar uni tong,
Keng quchoq ochib.
Ko'zlarida yonib,
Turadi quvonch.
Insonlar yashar,
Ko'nglida ishonch.



*Dilfuza TOJIBOYEVA,
Poytaxtdagi 213 - maktabning
6 - «A» sinf o'quvchisi.*

HAYOTKUSH

Quyosh kun bo'yi o'zining saxiy, sahovatli nurlarini sochib, g o ' y o charchaganday. Saxiylik sevikli q i l a d i , deganlaridek ona zaminga zarrin n u r l a r i n i b e m i n n a t ulashayotgan bobo quyosh borliq uchun seviklidir. Lekin,

olam qarama-qarshiliklar asosiga qurilgan. Qani endi tabiatning barcha ne'matlari quyosh misoli sahovatli bo'lsa. Ezgulik butun dunyoni zabt etib, dunyoda faqat adolat tantana qilaversa... Erta tong, subhidam chog'i yerga to'kilgan o'riklarni terib kelgani boqqa kirdim. O'rikning

yonida bir tup na'matak bor edi. Tabiat sahovatidan bahra olib, u bilan h a m n a f a s y a s h a y o t g a n na'matakni ko'rib, g'azabdan qo'limdagi chelakni otib yubordim. O'zi ko'rimsizgina bo'lgan c h i r m o v i q nafislikning ming bir jilosini o'zida mujassam qilgan n a ' m a t a k k a

tirmashib olibdi. Na'matak bo'lsa hayotdan umidini uzmagani, jaholat qurboni bo'lishni xohlamasdi. Bunday tubanlikni ko'rib, hech kim chidab turolmasa kerak. Men astagina na'matakka ziyon yetkazmagan holda chirmoviqni sug'urib olib, otib yubordim. Chirmoviq esa o'z ishidan mamnun bo'lib, «meni olib tashlasang, o'rnimga b o s h q a s i c h i q a v e r a d i»

deyayotgandek edi. Shuning uchun ham chirmoviqning hukmronligiga chek qo'yish maqsadida har kuni boqqa kelib, nafaqat chirmoviqdan, balki barcha y o v v o y i o ' t l a r d a n t o z a l a b turadigan odat chiqardim.

*Shuhrat
SUNNATOV,
A.Navoiy
nomidagi
Respublika*



Gazetamizning o'tgan sonida qarshilik tengdoshingiz Nurxon BOZOROVAning she'rlaridan namunalar o'qigandingiz. Nurxon yaxshigina rasmlar ham chizar ekan. Ushbu suratini «Dugonam» deb nomlabdi.



DARSDA

Matematika darsida o'qituvchi so'radi:
- Uy vazifasini bajarib kelganlar qo'lini ko'tarsin.
- Ustoz, onasi uy vazifasini ishlab berganlar ham qo'lini ko'tarsinmi?- so'radi Zokirjon.

KALIT ESHIK TAGIDA

Davronjon birinchi sinfda, ikkinchi smenada o'qiydi. Oiladagilarining hammasi ertalab ishga, o'qishga ketishadi. Davronjon esa maktab vaqti bo'lganida ko'cha eshikni qulflab, kalitni qo'shni-Poshshoxon xolaga berib ketardi. Bir kuni Poshshoxon xolaning uyiga borsa, eshigi qulf. Shunda portfelidan ruchka va qog'oz olib: «Kalit eshik tagida» deb yozibdi-da, qog'ozni o'zlarining eshigiga qistirib ketibdi.

*Malika ABDULLAYEVA,
Hamza tumanidagi 307- maktabning
4- «V» sinf o'quvchisi.*

«Men o'qishni istayman». Sirg'ali tumanidagi 303-maktabning 3- «A» sinf o'quvchisi Maftuna SHOMAXSUDOVA chizgan rasmini shunday nomlabdi.






«TOYCHOQ» KROSSVORDI

Eniga: 2. Qadimgi jazo turi. 3. Buratinoning otasi. 4. Xo'l meva. 5. Orkestr. 6. Qadimiy musiqa asbobi. 7. Amir, xon. 9. Kimyoviy element. 13. Beixtiyor aytiladigan so'z. 15. Joy, maskan. 16. Shirinlik. 17. Fizik olim. 18. Ruxsat, ijozat. 20. Uy jonivori. 21. Yuz a'zosi. 22. A.Dyuma qahramoni. 23. Bekor (ruschasi). 25. Inson. 27. Uni bahorda uchiradilar. 30. Leonardo da Vinchi asari. 32. Tennis o'ynaladigan maskan. 33. «Kusto» komandasining kemasi. 35. O'zbek avtosi. 37. Vaqt, daqiqa. 38. «Samoviy sarguzashtlar»dagi qahramon. 39. Shokolad turi. 40. Mehnatkash jonivor. 41. Vodiy. 42. Bog'lovchi.

Bo'yiga: 1. Ot turi. 7. Yoshlikdan to qarilikkacha bo'lgan davr. 2. Foyda, laj. 3. «Santa Barbara»dagi obraz. 4. Odamlar, xalq. 5. Qilingan jinoyatlar uchun to'lov. 8. Direktor, boshliq. 9. Qit'a. 10. Maqtov so'zi. 11. Qarta o'yini. 12. Edgar... 14. Lahza. 15. O'g'il bola ismi. 19. Koinot, osmon, samo. 20. Kam. 24. Muqaddas zot. 26. Yevropadagi davlat. 27. ... va Uzro. 28. Musiqiy yo'nalish. 29. Sitrusli meva. 31. Nam. 34. Kungaboqar. 36. Padar. 39. Nota.



Tuzuvchi: Nilufar
Hadimetova,
Yunusobod tumanidagi
9- maktabning
8- «A» sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
TONG Yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyat uyi kompyuter
bo'limida terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.
«Sharq» nashriyat-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasida
46.291 nusxada ofset usulida
bosildi.

Korxonalar manzili: «Buyuk
Turon» ko'chasi, 41.
Buyurtma № Г-267
Gazetani
Abduhamid
ABDUG'AFFOROV
sahifaladi.
Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi
№ 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri, Navoiy
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34
144-63-08